



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI**

2023 -yil 21 - avgust

130/09-3-qr -sonli

Toshkent shahri

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga
Korporativ boshqaruv qoidalarini tadbiq etish
chora-tadbirlari to‘g‘risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari, Davaktiv agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug‘i, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) kuzatuv kengashining 2023-yi 4-avgustdagi majlisi qarori hamda jamiyatning 2023-yil 14-avgustdagi 01-14-750-son murojaatiga asosan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi PQ–101-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”da:**

davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va dividend siyosatini takomillashtirish, bunda **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** tomonidan jalb etilgan ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun **yangilangan Korporativ boshqaruv qoidalari va Axloq kodeksini** korxonalar boshqaruv organlari tomonidan **grafikka muvofiq 2023-yil davomida tasdiqlanishi;**

pirovard natijada **50 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarda **Korporativ boshqaruv qoidalari va Axloq kodeksi joriy etilishi,** korxonalar va boshqaruv organlarining faoliyati samaradorligini oshirish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish belgilanganligi;

b) Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug‘iga asosan:

Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari (yangi tahrirda) tasdiqlanganligi;

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2018-yil 20-apreldagi 15-son majlis bayoni bilan tasdiqlangan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi;

2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga Korporativ boshqaruv qoidalarini hamda Axloq kodeksi talablarini joriy etish grafigiga muvofiq qayd etilgan hujjatlarni joriy yil iyul oyida jamiyat faoliyatiga tadbiq etish bo'yicha boshqaruv organlarining qarorlarini qabul qilish belgilanganligi;

d) jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 4-avgustdagi majlis qarori bilan:

jamiyatning **Axloq kodeksi, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati, Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati "Ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida"**gi Nizomi tasdiqlanganligi;

Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini qabul qilish, Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini qabul qilish to'g'risida ommaviy axborot vositalari xabar berish shakli hamda jamiyatning yangi tashkiliy tuzilmasi ma'qullanib, jamiyat yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun tavsiya etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyat tomonidan Davlat ishtirokidagi korxonalar Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyati qabul qilinsin.

3. Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini qabul qilish to'g'risida ommaviy axborot vositalari xabar berish shakli 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jamiyatning yangi tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga Korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazorat qilinishini ta'minlasin.

6. Jamiyat yagona aksiyadorining 2021-yil 18-oktabrdagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya qilish bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori o'rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

Direktor


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI

ASLIGA TO'G'RI

«21» avgust 2023 y.

A. Ortikov

«ЎЗБЕК ГЕОЛОГИЯ ҚИДИРУВ» АЖ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИ



Марказий бошқарув ходимлари: 126 штат бирлик

Техник хизмат кўрсатувчи ходимлар: 30 штат бирлик

Жами штат бирликлари: 3517 та